

## ZAMONAVIY TA'LIM TEHNOLOGIYALARIGA BO'LGAN INNOVATSIYON MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK DIAGNOSTIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11219189>

**Sabohat Abdurahmonovna Mamatqulova**

[mamatqulovasaboxat421@gmail.com](mailto:mamatqulovasaboxat421@gmail.com)

*Termiz davlat pedagogika instituti, Magistratura bosqichi Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 23-01-guruh magistranti. +998937646087.*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning innovatsion masalalari to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijasida o'quvchilarning intellektual salohiyati va ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi. Shuning bilan birgalikda, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yanada boyitish, takomillashtirishga olib keladi.

### **Kalit so'zlar**

*ta'lim, innovatsion texnologiya, axborot texnologiyalari, ta'lim texnologiyasi, innovatsiya, mazmun-mohiyati.*

## PEDAGOGICAL DIAGNOSIS OF INNOVATIVE ATTITUDES TO MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

**Sabohat Abdurahmonovna Mamatkulova**

[mamatqulovasaboxat421@gmail.com](mailto:mamatqulovasaboxat421@gmail.com)

*Termiz State Pedagogical Institute, master's degree,  
theory and of pedagogy (by types of activities),  
group 23-01 master's student. +998937646087.*

### **Abstract**

*This article describes the innovative issues of using modern pedagogical technologies in the development of students' intellectual abilities in the educational system. As a result of the application of educational technologies during the lesson, the intellectual potential and scientific-theoretical knowledge of students will be further strengthened. At the same time, information and communication technologies and modern pedagogical technologies in education lead to further enrichment and improvement.*

### Key words

*education, innovative technology, information technology, educational technology, innovation, content-essence.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ИННОВАЦИОННОГО ОТНОШЕНИЯ К СОВРЕМЕННЫМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

**Маматкулова Сабохат Абдурахмоновна**

*mamatqulovasaboxat421@gmail.com*

*Термезский государственный педагогический институт,*

*магистр, теория и история педагогики*

*(по видам деятельности), магистрант группы 23-01.*

*+998937646087*

### Аннотация

*В данной статье рассмотрены инновационные вопросы использования современных педагогических технологий в развитии интеллектуальных способностей учащихся в системе образования. В результате применения образовательных технологий на уроке интеллектуальный потенциал и научно-теоретические знания учащихся будут дополнительно укрепляться. В то же время информационно-коммуникационные технологии и современные педагогические технологии в образовании ведут к дальнейшему обогащению и совершенствованию.*

### Ключевые слова

*образование, инновационные технологии, информационные технологии, образовательные технологии, инновации, содержание-сущность.*

Mamlakatimizda jahon talablari darajasida ta`lim olish va kasb egallash, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro`yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O`zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta`lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta`minlash, ta`limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta`lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Bugungi kunda ta`lim va tarbiya jarayoni faqatgina o`quvchining xotirasini kuchaytirishni talab etmasdan, balki yaratuvchanlik faoliyatida hayotiy imkoniyatlarni rivojlantirish va uning o`zgarishlariga moslashuvchan yangi, sog'lom avlodning ijodiy shaxsni rivojlantirishni nazarda tutishi lozim.

Yoshlarimizning intellektual salohiyatini oshirish, ularda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini olib borishni talab etmoqda.

Pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi. Pedagogik texnologiya o'qitishda o'ziga xos innovatsiyon yondoshuvdir. Har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko'rinishidagi o'zaro jamoaviy ta'sir yotadi. Texnologiyaning shaklidan qat'i nazar asosiy natija umumiy jarayonning tavsifi, predmeti, vositalari va yakuniy ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Pedagogik texnologiya mohiyatini anglab olish uning tarkibiy tuzilmasi, vazifasi, nazariy tuzilmasini ko'rib chiqish, asosiy tayanch tushuncha va kategoriyalarning mazmunini tushunishga imkon beradi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari: motiv-jarayon-natija. Pedagogik texnologiyada motivlar jarayonni keltirib chiqaradi va shu jarayonning natijasiga olib keladi. Bundan esa, pedagogik texnologiyani motivlar, jarayon va natijadan iborat uchta tarkibiy bo'laklarga ajratib tahlil qilish imkoniyati hosil bo'ladi. Pedagogik texnologiya jarayonida qo'llaniladigan vositalar: og'zaki, yozma, ko'rgazmali, texnikaviy. Pedagogik texnologiya natijalari: o'qituvchi- Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish, pedagogik malaka, ko'nikma, mahoratning ortishi, ijodiy o'sish, raqobatbardoshlik. Ta'lim texnologiyasi- aniq bilim, ilmiy yutuqlar, texnika sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni maqsadli, tashkiliy, rejali va tizimli amalga oshirish jarayonidir. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi (tarbiyachi)ning talaba (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi" tushunchalari ham ishlatiladi.

Pedagogik texnologiya monitoring bosqichlari:

- 1- bosqich, o'rganish, esda saqlash;
- 2- bosqich, tushunib olish;

3 – bosqich, tatbiq eta olish, o`rganganni ayta bilish, isbotlash;

4 – bosqich, qoida qonunni bilib olib, undan foydalanish;

5 – bosqich, sintez, qiyoslash, taqqoslash, bir-biriga bog`lash, tahlil eta bilish;

6 – bosqich, baho olish, axborotni ijodiy qayta ishlay olish.

Nazariyani o`quv amaliyoti bilan bog`lash zaruratini anglash zamonaviy pedagogik texnologiyaning tuzilmasini aniqlab beradigan bir qator holatlarni belgilashga imkon beradi:

1. Zamonaviylik ta`lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba-sinovda tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, tartib-qoidalarni joriy etishning majburiyligini taqozo etadi.

2. O`quv jarayonini maqbullashtirish – kechiktirib bo`lmaydigan masaladir.

3. Ilmiylik ta`limda yangi vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni, tashkiliy masalalarning yangi yechimlarini qo`llashni taqozo etadi.

4. Talaba va o`qituvchining dasturli faoliyati o`quv jarayonidan jamiki ortiqcha harakatlarini yo`qotishga, yuqori hamjihatlikni ta`minlashga va kerakli natijalarni qo`lga kiritishga intilishni ta`minlaydi.

5. Ta`limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish - zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy belgilaridan biridir.

6. O`quv jarayoni uchun moddiy-texnika bazasining maqsadga muvofiqligi - pedagogik texnologiyaning navbatdagi belgisidir.

7. O`quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash - pedagogik texnologiyaning o`z oldiga qo`ygan natijaviy maqsadidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o`zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog`liq xususiy nazariyasiga ega;

-u birinchi galda o`quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo`naltirilgan,

-o`qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan

-faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o`qituvchi

-va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda hamkorlik texnologiyasining quyidagi interfaol usullaridan “Klaster”, “Bumerang”, “Aqliy hujum”, “Idrok xaritasi”, “Baliq skeleti”, “Ajurli arra”, “BBB”, “KBI” va boshqa ko`plab turlaridan pedagoglarimiz foydalanib ijobiy samaralarga erishmoqdalar. Demak bugungi mahoratli o`qituvchilarimiz hamkorlik texnologiyalaridan maqsadli, tizimli foydalansalar yaxshi natijalarga erishadilar.

Ta'lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lib, u o'z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlariga bog'liq ravishda ro'y berayotgan aksariyat o'zgarishlarga muvofiq o'zgara boradi. Ana shu doirada innovasiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Pedagogik nazariya va amaliyotning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasiga umumjahon ahamiyatiga molik bo'lgan quyidagi asosiy yangiliklar xosdir:

- moliyalashtirish va boshqarish sohalaridagi o'zgarishlar;
- ta'lim tizimi tuzilishidagi muntazam o'zgarishlar;
- ta'lim texnologiyasida ro'y beradigan doimiy o'zgarishlar.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalar -ta'limga yangi tartib-qoidalarni kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir.

Biroq ularni qanday qilib tatbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko'p vaqt sarflash lozim, ya'ni ta'limda innovasiyali jarayonlarning tatbiq qilinishi bilan o'qituvchining roli pasaymaydi. Chunki yangi tartib-qoidalaridan foydalandimi yoki axborot manbai sifatida qolib ketadimi, bu narsa ayni o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita tartib-qoidalariga jiddiy tayyorlangan, yo'l-yo'riq olgan, moslangan, ruhlangan bo'lishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T. Sharq. 1997.

2.. 1.Norboyeva S.M." Umumiy pedagogika" ( Pedagogika nazariyasi)o'quv qo'llanma Toshkent 2023,226-bet

3. Usmanova G.A. Tajriba-tadqiqot maydonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. // Jurnal Ta'lim texnologiyalari №1, -2012, - b. 29

4. Xodjayev B.X. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" // "Sano-standart" nashriyoti.// Toshkent – 2017.

5.Arziqulov D.N. "Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari" //Psixologiya fanlari nomzodi...diss..Avtoreferat-T.:2002.

[www.google-scholar.com](http://www.google-scholar.com)

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

[www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)

[www.cyberlelinka.uz](http://www.cyberlelinka.uz)

[www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

[www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)